

T/r	Loyiha mavzusi	Fan yoʻnalishi Filologiya va ijtimoiy fanlar
	Milliy maqom ijrochiligining keng targʻibotiga qaratilgan “Shashmaqom doira usullari” nomli elektron platforma yaratish. 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: - milliy maqom sanʼatiga oid Shashmaqom doira usullari ilmiy-nazariy oʻrganiladi; - mazkur mavzu uchun zarur boʻlgan xorijiy adabiyotlar oʻzbek tiliga tarjima qilinadi; - umumtaʼlim, bolalar musiqa va sanʼat maktablari, professional taʼlim, oliy taʼlim muassasalari taʼlim jarayonida foydalanishi uchun QR-kodli “Shashmaqom doira usullari” nomli darslik va qoʻshimcha adabiyot hamda Shashmaqom doira usullarini audio va video shakllari yaratiladi; - yaratilgan yangi oʻquv adabiyotlar dars jarayonlarida tajriba sinovlaridan oʻtkaziladi; - Shashmaqom doira usullari mobil ilovasi va elektron platforma yaratiladi. Natijalarni sinovdan oʻtkazish. Olingan natijalar Madaniyat vazirligi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan oʻtkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi toʻgʻrisida Madaniyat vazirligining xulosasi olinadi.. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, oʻquv qoʻllanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus maʼlumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Madaniyat vazirligining qoʻllab-quvvatlash xati mavjud boʻlganida qabul qilinadi.